

## MAKTAB TA'LIMIDA ESSE YOZISH

*Usarova Umida Yolibboy qizi*

*Urgut tuman MMTBga qarashli*

*81-umumiy o'rta ta'lim maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: maktab ta'limada esse yozish talablari va o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish ko'nikmalari.

Shiddat bilan rijovlanayotgan jamiyatimiz rivoji ta'lim sohasiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti. Dasrliklarimiz zamon talabiga mos ravishda yangilanmoqda. O'quvchi va o'qituvchilar ham bunga moslashyaptilar. Bu yo'lda esa ayrim qiyinchiliklar ham uchrab turgani hech kimga sir emas. Biz ona tili va adabiyot o'qituvchilari badiiylikka mehr qo'yganligimiz uchun bugungi kundagi esse janrida qalam tebratishda ba'zi muommolarga uchrab qolyapmiz, yozgan ijodimiz badiiylikka moyil bo'lib qolyapti. Esseda esa badiiy uslub emas, publitsistik uslub yetakchilik qilishi kerak. Esse janri uni talablari haqida bizni tilshunosligimizda hali ma'lumotlar yetarlicha topilmaydi. Esse janri publitsistikaning ham, badiiy uslubning ham, badiiy adabiyotning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Xo'sh, bu atama asli qayerdan kirib kelgan. Bu janr o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida qachon paydo bo'lgan. Esse janrini tarixi juda qadimga borib taqaladi. Janr sifatida dastlab Fransuz faylasufi Mishel Montening "Esse" (Tajribalar) asari uch kitobdan iborat bo'lib, u 1580-1588-yillarda yaratgan. O'zbek adabiyotida ham esse-badianing tarixi Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy kabi buyuk bobolarimiz nomlari bilan bog'liq. Esse atamasi "O'zbek tilining izohli lug'atida" quyidagicha izohlangan: "Esse (fransuzcha esyesai-tajriba, mashq, xomaki narsa) adabiy falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yoziladigan muammolar sistematik ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar". "O'zbekiston milliy ensiklopediya" sida "esse- (fransuzcha yessai- urinish, sinash, ocherk) - erkin kompozitsiyali, uncha katta

bo'lmagan nasriy asar . esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi” deb ta’rif berilgan. Esse yozish bugungi kun ta’limining barcha sohasiga kirib keldi. Biz ungacha bo’lgan vaqtlar davomida matn tuzish, bayon va insho yozish usuli bilan nazorat ishlarini amalga oshirar edik. Hozirgi kunda yangi nashr etilgan oltinchi va o’ninchi sinf ona tili darsliklarimizda esse yozish talabi qo’yilmoqda endi o’quvchida esse yozish ko’nikmasini shakllantirishimiz kerak. Esse yozish uchun quyidagi talablar mavjud:

1. Kirish qism: bunda o’quvchi mavzuni qay yo’sinda yoritishi uchun o’zining oldiga savol qo’yib oladi. Bu qism 4 yoki 5 ta gapdan iborat bo’lishi kerak.

2. Asosiy qism: bu qism ham o’z ichida yana 3 qismga bo’linadi. O’quvchi ushbu qismlarda dastlab mavzuni foydali jihatlarini, so’ng jamiyat uchun zararli jihatlarini yoritadi. Bunda o’quvchi fikrlarini turli dalil va faktlar bilan isbotlashi zarur. Mavzuga oid turli tadqiqotchilarni ma’lumotlaridan, olimlarni fikrlaridan internet saytlaridan misollardan keltirishi lozim. Ushbu ma’lumotlari hayotiy misollar asosida bo’lishi zarur. O’quvchi o’zi tarafdori bo’lgan fikrni, albatta, isbotlashi kerak. Bitta tomonni tarafdori bo’lishi lozim.

3. O’quvchi yuqorida keltigan faktlarga tayanib o’zi qo’llab- quvvatlagan fikrni isboti uchun yechim taqdim qiladi.

Bundan tashqari esseda yana bir qancha detallarga ham e’tibor qaratamiz. Adabiy til me’yorlariga amal qilish, mavzuga oid iqtiboslar bo’lishi, xat boshilarga tog’ri ajratilishi ham juda muhimdir. Badiiy va so’zlashuv uslubidan foydalanmaslik ham esse uchun ahamiyatli. Esseni mazmuniy , kompozitsion va grammatik butunligi saqlanishi kerak.

Esse namunasi

**Ba’zi insonlar ijtimoiy tarmoqlar foydali desa, yana boshqalar uning qator zararlarini ta’kidlaydi. Sizning fikringiz.**

Bugungi axborot asrida xabarlarga bo’lgan talab juda yuqori. Biz bu ma’lumotlarni turli internet tarmoqlaridan olyapmiz. Shunday shiddatli davrda ijtimoy tarmoqlarning biz uchun ahamiyati qanday? Hayotimizda ijtimoiy tarmoqlar kirib bormagan soha ham

kasb ham, hattoki, biron xonadon ham qolmadi. Ular orqali biz istalgan vaqtda xohlagan ma'lumotni tez va oson topa olamiz. Birinchidan, u yerda cheksiz axborot manbai mavjud. Ikkinchidan, ish vaqti chegaralanmagan. Uchinchidan, dunyoni istalgan joyida turib boshqa joy haqida bilib olish mumkin. To'rtinchidan, masofani yaqinlashtiradi. Aytaylik, men O'zbekistonda turib, Turkiyadagi ukamni ko'rib sog'lig'ini bilishim, gaplashishim mumkin. Bundan tashqari sotuvda topa olmaydigan kitoblarimiz ham ijtimoiy tarmoqlar topiladi. Turli kasblarni ham uydan chiqmagan holda internet saytlari orqali o'rganish mumkin. Bir qancha qulayliklar yaratgan ijtimoiy tarmoqlarni quyidagi zarari ham bor. Birinchidan, axborotlarda yosh doirasida chegaralar yo'q. Bu esa farzandlarimizni turli zararli xabarlardan asray olmasligimizni bildiradi. Ikkinchidan, tarqalgan ma'lumotlarni manbasi deyarli aniq emas. Uchinchidan yoshlarimiz ulardan ko'ngilochar dasturlar sifatida foylanyapti (ayrimlari). Bundan tashqari, jonli muloqotni yo'qolishiga sabab bo'lmoqda, ya'ni yaqinlarimizni ko'rishga bormaymiz bag'rimizga bosib mehrimizni ulasholmaymiz. Menimcha, bu tarmoqlarni o'rnini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Ish samaradorligi axbarot tezligi jihatidan. Ish unumdorligini oshirishi, albatta, bizlar uchun juda foydalidir. Yuqaridagi fakt va dalillarga tayanib shuni aytish mumkinki, ota-ona, opa-singil, aka- ukalar beradigan mehrni biz hech kimdan va hech qayerdan topa olmaymiz. Bularni ijtimoiy tarmoqlardan emas, yuzmayuz ko'rishishdan his etamiz, albatta. Maktab ta'limida insho o'rniga esse janrini keng qo'llanishi bu o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ularni o'rgangan bilimlarini hayotga tadbiiq qila olishlari, real hayotda uchragan muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish uchun kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005,10-jild.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent : "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 5-jild.
3. "O'zbek tilida esse yozish texnikasi" M.A.Raximova, uslubiy qo'llanma. Samarqand: 2023.